

## O'ZBEKISTONDA TURISTIK SAYOHATLARNI TASHKIL ETISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14284503>

**Aslanova Dilnoza Fatilloyevna**

*Buxoro shahri*

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

*Maxsus iqtisodiy fanlar o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasidagi turistlik faoliyatning asosiy maqsadi mehmondo'stlik industriyasini yanada rivojlantirish uchun tashkiliy huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish, respublika miz tabiiy va tarixiy-madaniy salohiyatidan samarali foydalanish asosida raqobatbardosh turistlik xizmatlar bozorini shakllantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha iqtisodiy tahlillar, taklif va tavsiyalari ishlab chiqilgan.

### **Kalit so'zlar**

Turizm, industriyasi, investitsiyalar, turizmda innovatsiya.

### **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasining turizm sohasi jahon turistlik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, Butun jaxon turistlik tashkilot ekspertlarining bashorati buni to'la tasdiqlamoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillardagi barcha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorliklarga qaramay, mamlakat turizm sohasi davlat investitsiyalarisiz va dotatsiyalarisiz mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini oshirib borayotgan xalq xo'jaligi tarmoqlaridan biridir. O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Yuqorida ko'rsatilgan omillarga muhim ahamiyat berilarkan, O'zbekiston Respublikasida ham turizm sohasini rivojlantirish borasida bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi bosqichda tashqi va ichki muhitning tez o'zgarib turishi munosabati bilan O'zbekiston turizm bozorini rivojlantirishda ham bir qator muammolar mavjudligini tan olish zarur. O'z navbatida bunday holat turizm tarmog'iga

valyuta mablag'lari va mamlakatimiz hamda xorijiy investorlar tomonidan qo'yiladigan investitsiyalarning hajmi kam bo'lishiga olib keladi. Butun dunyoda turizmning rivojlanishi katta foyda keltirmoqda va milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'maklashmoqda. Bu o'z navbatida hozirgi kunda O'zbekiston uchun ham muhim omildir. [1].

O'zbekiston bu borada o'zini bor iqtisodiy va ekologik,tarixiy omillaridan foydalanib o'tgan yillar mobaynida ko'pgina yutuqlarga erishdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Turistik boshqaruvni rivojlantirish borasida ham ko'pgina imkoniyat eshiklari ochildi. Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida turistlar uchun tunu-kun faoliyat yuritadigan "turizm ko'chalari" tashkil qilish.

1. Tashkil etiladigan turizm ko'chalari ro'yxatini shakllantirish.

2. Turizm ko'chalari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda tungi vaqtda ishlashini ta'minlash maqsadida ularning atrofini uzluksiz yoritish. Mazkur hududlarni energiya tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari bilan jihozlash.

3. Turizm ko'chalarida jamoat xavfsizligi normalari va talablari doirasida "xavfsizlik chaqiruv tugmalari" o'rnatish hamda Wi-Fi zonalari tashkil etish[2].

Yuqorida tashkil etilgan sharoitlar natijasini joriy yilning ko'rsatkichlari asosida ko'rib chiqsak turizm sohasi rivojlanayotgan darajasi guvohi bo'lamic.

O'zbekistonga 2024-yilning yanvar – iyun oylarida 3,5 milliondan ortiq chet el fuqarolari turistik maqsadda tashrif buyurgan.

Qayd etilishicha, ushbu ko'rsatkich o'tgan 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda **415,6 ming nafarga** yoki 13,3 foizga oshgan.

O'tgan olti oyda O'zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining mamlakatlar kesimida soni quyidagicha:

**Qirg'iziston** – 1 million 57,4 ming nafar;

**Tojikiston** – 1 million 46,2 ming nafar;

**Qozog'iston** – 668,4 ming nafar;

**Rossiya** – 364,5 ming nafar;

**Turkmaniston** – 67,2 ming nafar;

**Turkiya** – 51,9 ming nafar;

**Xitoy** – 28,7 ming nafar;

**Hindiston** – 28,2 ming nafar;

**Janubiy Koreya** – 19,6 ming nafar;

**Italiya** – 17,7 ming nafar;

**Boshqa davlatlar** – 181 ming nafar.

O'zbekistonga 2024-yilda mingdan ortiq britaniyalik turist yuborilishi rejalashtirilayotgan. O'tgan yilning sakkiz oyi davomida mamlakatga xorijdan 4,3 million turist keldi, ulardan **1,4 milliard dollar tushum bo'lган**.

Bu kabi natijalarga erishish uchun esa turizm sohasini rivojlantirib ,yanada mukammal va ko'p qirrali huquqiy va iqtisodiy muhit yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 2022 – 2026- YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASINI "INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI"DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA, PF-27 28.02.2023

[2].O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 28-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.03.2024, TURISTIK XIZMATLARNI TASHKIL QILISHDA BOSHQARUVNING TUTGAN O'RNI maqola Tuychiyeva Malika Shokirova

3. [1]. I.S.Tuxliyev., G'.X.Qudratov., M.Q.Pardayev. Turizmni rejalashtirish. Darslik. «Iqtisodiyot moliya» nashriyoti.Toshkent. 2010.

4.Uz.STAT sayti